

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA “ILK QADAM“
DAVLAT DASTURIDAN FOYDALANISH.**

*Ro'zimboyeva Maftuna Jo'rabek qizi
Andijon Davlat Pedagogika instituti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lismizning tizimini rivonlantirishining hozirgi kundagi ahamiyati va rivojlanish sohasida olib borilayotgan ishlar borasida

maktabgacha ta'lismizning tashkilotlarida “ILK QADAM” davlat dasturining ahamiyati, maqsadi va vazifalari aks etgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lismiz, ilk qadam dasturi, bolalar, kompetensiyaviy yondashuv, rivojlanish, talim-tarbiya.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'limga jarayoniga samarali ta'limga va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limga samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagilari bolalarning rivojlantirish borasida davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy huquqiy hujjatlar maktabgacha ta'im tashkilotlarining maqsad va vazifalari, o'quv tarbiyaviy faoliyatning asosiy go'yalari maktabgacha yoshdagilari bolalarni ta'limga keyingi bosqichiga o'tishdagi asosiy kompetensiyalari belgilab o'tilgan. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan barcha maktabgacha ta'im muassasalari uchun (davlat, nodavlat, maxsus va boshqa) ushbu dastur asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni:

- Davlat maktabgacha ta'limga jarayoniga samarali tashkilotlari
- Maktabgacha ta'limga samarali xizmat ko'rsatayotgan nodavlat ta'limga jarayoniga samarali tashkilotlari
- Maktabgacha guruhlarga ega bo'lgan “Mehribonlik” uylari

-Maktabgacha va boshlang'ich ta'lismi nazorat qiluvchi boshqaruv organlari ushbu davlat o'quv dasturini qo'llashlari majburiydir. Davlat o'quv dasturi har bir bolaning ta'lim, tarbiya, rivojlanish, himoya va faol ishtirok etishidan teng foydalanish huquqlarini tan oladigan inklyuziv o'quv dasturi hisoblanadi. Davlat o'quv dasturi barcha bolalar, shu jumladan, alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarning individual xususiyatlari, kuchli tomonlari, qiziqishlari, qobilyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim berish, rivojlanish va muloqatda qo'shimcha yordam ko'rsatishga mo'ljallangan.

I bob-Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsad va vazifalari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

-Bolaning shaxsiy ehtiyojlari hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdag'i bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari asosida hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat o'quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.

-Maktabgacha yoshdag'i bolalarning ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish.

-Bolalarning rivojlanishi masalalarida oila va mahalliy jamoatchilik o'rtasida o'zaro hamkorlikni tashkil etish.

II bob-MTT ta'lim jarayonining maqsad va tamoyillari deb nomlanib u quyidagilarni:

-MTT ta'lim jarayonining maqsadlari

-MTTda ta'lim jarayonini tashkil qilish tamoyillari

-Qo'shimcha ta'lim xizmatlarini tashkil qilish

-Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim faoliyati

-Ota-onalar bilan hamkorlikni o'z ichiga oladi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonining maqsadi, bolalarda umumi kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

MTTda ta'lim jarayonini tashkil qilish tamoyillari.

- bolalikni o'ziga xos qadiriyat ekanligini tan olish
 - bolaning huquq, individualligi va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olish
 - har bir bolaning har tomonlama rivojlanish va faravonligini ta'minlash
 - bolaning sog'ligini saqlash, mustahkamlash va xavfsiz muhitni ta'minlash
 - o'yin orqali ta'lim olish va rivojlantirish
 - maktabgacha ta'lim tashkilotlarining oila, mahalla, maktab bilan hamkorligi
 - milliy tarixiy va madaniy an'analari, ma'naviy boyliklarini tan olish va boshqa xalqlar madaniyatiga hurmatda bo'lismi.
- III bob- Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv deb nomlanib, dastur majburiy 5 ta ta'lim sohasini o'z ichiga oladi.
- "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini tashkil etish" sohasi kompetensiyalari
 - "Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasi kompetensiyalari
 - "Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasi kompetensiyalari
 - "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasi kompetensiyalari
 - "Ijodiy rivojlanish" sohasi kopetensiyalari.

Kompetensiya bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang'ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat'iy nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

- Kommunikativ kompetensiya-muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.
- O'yin kompetensiyasi-bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda bilim, tajriba va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi.O'quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi.
- Ijtimoiy kompetensiya-hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati.
- Bilim kompetensiyasi-atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish

uchun foydalanish.

IV bob-O'quv tarbiyaviy faoliyat bobida O'zbekiston Respublikasidagi barcha MTTlarda tashkil etiladigan o'quv va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish masalalarini o'z ichiga oladi. O'quv tarbiyaviy faoliyat "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktab yoshdagi bolalarni rivojlantirishga oid davlat talablari" asosida amalga oshiriladi.

V bob- rivojlanish sohalari bo'yicha yutuqlari MTM pedogoglari tomonidan bolaning rivojlanishini kuzatib boorish xaritasini yiliga uch marta to'ldiriladi.(3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan) shuningdek, 6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorgarlik xaritasi ham to'ldiriladi .bu xaritada davlat dasturiga muvofiq bolalar rivojlanishining beshta sohasi kompetensiyalari bo'yicha kutilayotgan natijalar ifodalanadi.

VI bob-Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish bobida Maktabgacha ta'lim tashkilotii quyidagi mazmunda:

-ko'rgazmali-rivojlantiruvchi

-madaniy-tarixiy qadriyat

-milliy-mintaqaviy an'analar

-tabiat, iqlimdan kelib chiqib xususiyatlarga mos bo'lishi yoritiladi.

VII bob-Ilovalarni o'z ichiga olib ushbu dasturni amalyotda qo'llashning mazmun va mohiyati yoritib beriladi.

Dastur- muhim vosita bo'lib, uning yordamida tarbiyachilar (mutaxasislar) O'zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga oid Davlat talablariga muvofiq muayyan yosh guruhdagi bolalar uchun eng maqbul va samarali shakllar,metodlar va ta'lim jarayonini tashkil qilish yo'llarini belgilaydi. ILK QADAM davlat dasturida bolalarimizning sifatli ta'lim tarbiya olishlari uchun kerak bo'lgan shart-sharoitlar, muloqot jarayonlari, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarda yuz beradigan o'zgarishlar va ularga mos ravishda yechim topish yo'llari ham aks etgan. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari ushbu o'quv dasturidan foydalanib o'zlarining kundalik, mavsumiy ish rejalarini tuzib olishadi. Maktabgacha talim tizimida ushbu dasturni qo'llash umumiy miqyosdagi

amaliy tajriba hisoblanadi va ushbu tizimni qo'llashda mamlakatimizdagi boshqa talim tizimlari va ijtimoiy institutlarning integratsion faoliyati zarurdir. Shu nuqtai nazardan “Ilk qadam” davlat dasturining har bir maktabgacha talim tashkilotida amaliyatga tadbiq etilishi bugungi kundagi sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni ma'lum tizimga soluvchi omil sifatida faoliyat olib boradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar.

1. Maktabgacha pedagogika. Qodirova. F.R.Toshpo'latova. SH.Q.A'zamova.

M.N.Toshkent Tafakkur nashriyoti, 2019.

2.ILK QADAM davlat dasturi.Toshkent ,2022.

3.www. ziyonet. Uz

4.www. pedagog. Uz